



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 596 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar.....	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	
Boshlang'ich ta'limda individual yondashuv orqali o'quvchilarning ta'lim natijalarini yaxshilash	37
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarning raqamli resurs bazasini yaratish kompetensiyasi: tuzilma va mezonlar.....	41
Qo'qonboyeva Durdona Faxriddin qizi	
Biologiyani o'qitishda zamonaviy ta'lim metodlari.....	44
Joldasbayeva Gulchexra Maksetbayevna	
Organik fotoelementlarning moslashuvchanligini oshirish.....	49
Jalolova Pokiza Muzaffarovna	
Dzyudo sport turida texnik tayyorgarlikni takomillashtirishda maxsus mashqlardan foydalanish samaradorligi.....	54
Ko'palov Sanjar Ulug'bekovich	
Interactive Methods for Developing Sociolinguistic Competence in Higher Education	59
Baxramova Diyora Sanjar qizi	
Texnika yo'nalishi talabalarini ishlab chiqarish muhitiga tayyorlashda CDIO va sanoat korxonalari hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	66
Gaffarov Xasan Ravshanovich	
Onkologik bemorlarga tashxisni bildirish madaniyati va uning psixologik oqibatlar (O'zbekiston misolida)...	70
Jonpo'lotova Manzura Jahonovna	
Malaka oshirish jarayonida rahbar-kadrlarning SOFT-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi.....	75
Axrorova Umida Xamidullayevna	
Refleksiv ta'lim muhitida o'z-o'zini baholash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik parametrlari tizimi	81
Sadikova Shaxnoza Ulug'bek qizi	
Loyihaviy faoliyat asosida talabalarda mustaqil ta'lim kompetensiyalarini shakllantirish mexanizmlari	87
Jabborov Toxirjon Maqsudali o'g'li	
Biologiya fanini o'qitishda biologiya (maxsus pedagogika: logopediya) yo'nalishi talabalarining tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	91
Hakimova Musharraf Fozilovna, Hasanova Zebo Davlatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda bolalar adabiyotining didaktik imkoniyatlari	96
Homiyatova Mavluda Amon qizi	
Boshlang'ich sinflarda raqamli ta'lim muhitini yaratish va interaktiv metodlardan foydalanish.....	101
Karimova Nargiza Raximovna	
Maktabgacha ta'limda raqamli texnologiyalar asosida bolalarning soft skillsini rivojlantirish: interaktiv va sun'iy intellektga asoslangan yondashuvlar	109
Mamatqulova Nozimaxon Shavkat qizi	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida innovatsion pedagogik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirish: kvazi-eksperimental tadqiqot.....	116
Nozimabonu Tojiboyeva	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axborotni tekshirish va dalillarga asoslangan xulosa chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	124
Abduraxmonova Gulandam Anvarjonovna	
Funksional yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini takomillashtirishning ustuvor jihatlarini.....	130
Safarov Dilmurod Zoirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'quv faoliyati samaradorligini oshirishda o'qish savodxonligining ahamiyati	135
Turg'unboyev Sirojiddin Faxriddinovich	
Sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish asosida matematika fanini o'qitishda o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish metodikasi.....	140
Sultonova Shahnoza Yusuf qizi	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish metodikasini yosh omili asosida takomillashtirish.....	147
Akhmadaliyeva Nargizakhon Abdumalik qizi	
Tengdoshlar bilan munosabat sifatiga oilaviy muhitning bilvosita ta'siri	153
Baratullayeva Dilnoza Xabibullo qizi	
Bolalar kiyimlari va ular bilan bog'liq urf-odatlar (Buxoro vohasi misolida).....	156
G'iyosova Zarina Yusuf qizi	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy-metodik kompetentligi rivojlanganlik darajalarini kvalimetrik shkala asosida baholash	160
Niyozova Shahlo Abdusaitovna	
Bionika asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ixtirochilik qobiliyatlarini rivojlantirishning samarali metodlari	167
Jumaboyeva Maxliyo Rashidbek qizi	
Talabalarning bilish faolligini oshirishning pedagogik mexanizmlari.....	172
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi	
Kredit-modul ta'lim tizimida talabalar mustaqil ta'limini neyropedagogik yondashuv asosida tashkil etishning pedagogik-didaktik tamoyillari.....	178
Farrux O'. Ibragimov	
Kichik maktab yoshdagi bolalarning o'quv faoliyatiga moslashishining pedagogik-psixologik xususiyatlari	185
G'ofurova Madina Ikromjon qizi	
Rashk muammosining ijtimoiy-psixologik mazmun-mohiyati.....	189
Ummatova Sitora Shavkatulloyevna	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmasini rivojlantirishning ilmiy-nazariy aspektlari	196
Salayeva Sitora Serali qizi	
Nabi Jaloliddin ijodida tarixiy tafakkur va zamonaviylik uyg'unligi	201
Matchanova Mastura Baxrom qizi	
Geometriyani o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish	205
Sultonova Dilrabo Yusuf qizi	
ESP ta'limida syllabus design va uning arxitektura-qurilish yo'nalishlaridagi ahamiyati.....	210
Xayitova Dilnoza Bahtiyorovna	
Цифровизация и глобализация как факторы трансформации французского языка в XXI веке	214
Давронова Зульфия Бобоевна	
Key Highlights of a Dialect for Extraordinary Purposes.....	219
Berdiyeva Mekhriniso Kholmamatovna	
Transformatsion liderning maktabgacha ta'lim tizimidagi strategik va pedagogik ahamiyati.....	223
Mustafoev Maqsudbek Olim o'g'li	

Milliy komponentlarga asoslangan tasviriy san'at ta'limining asosiy metodik tamoyillari.....	227
Baltayeva Xalima Toraboyevna	
Arxitektura ta'limida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning kompetensiyaviy modeli	231
Abduvosiqova Dilafruz Djalaliddinova	
Bo'lajak tarix o'qituvchisi pedagogik-psixologik tayyorgarligining nazariy-konseptual modeli	236
Toshpo'latova Shaxnoza Shuhratovna	
The Impact of the Flipped Classroom Model in Uzbek Secondary Schools: Participation and Engagement	240
Khamidova Shabnam Gulakhmadovna	
Sharq va G'arb pedagogik an'analarida sun'iy intellekt vositasida tarbiya jarayonini transformatsiyalash: qiyosiy tahlil va metodologik yondashuvlar.....	244
Jamolova (G'anijonova) Mushtariybegim Bobirjon qizi	
Sport tayyorgarligi tizimida trenerlar faoliyatining mazmuni, tuzilishi va zamonaviy talablari	249
Ismailova Dildora Qudratullayevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni son sanoqqa o'rgatishda didaktik vizual vositalarning turlari va ularning pedagogik ahamiyati.....	255
Kushakova Gulnora Egamqulovna, Valiyeva Sabina Shavkat qizi	
Bo'lajak tarbiyachilarning kognitiv-integrativ mobilligi, mohiyati va tarkibiy komponentlari.....	262
Mirzayeva Kamola Ikrom qizi	
Kursantlarda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning psixologik-pedagogik ahamiyati.....	267
Shermatova Nazokat Safarovna	
PISA topshiriqlari asosida 5-sinf o'quvchilarining ilmiy tadqiqotlarni loyihalash kompetentsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	271
Zulayxo Mamajanova	
Лингводидактические основы развития письменной речи студентов на материале жанра травелога	275
Тахирова Маъсуда Абдужаббор кизи, Хазраткулова Мохира Азизбековна	
Migrant oilalarning bola psixikasiga ta'siri	280
Baxtiyor Odilovich Saidov	
Трансформация рекламного дискурса в социальных сетях.....	284
Икрамова Мунира Маруфжановна	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini oshirishda web-platformalardan foydalanish modeli.....	289
Akramova Mohinabonu Mirg'olib qizi	
Teaching Translation Equivalence Through Comparative Analysis of Simultaneous and Written Translation: An Experimental Study in Uzbek-English Translation Education.....	294
Iskandarova Risolat Ravshanbekovna	
Oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishning ahamiyati va dolzarbligi	299
Ismadiyrov Komil Maxamadiyrovich	
Anorganik kimyoda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan pedagogik tajriba-sinov ishlarining matematik-statistik tahlil natijalari.....	304
Boboyarova Nilufar Saydullayevna	
Maktabgacha yoshdagi duduqlanuvchi bolalar nutq nuqsonlarini qo'g'irchoq teatri asosida bartaraf etish texnologiyalarini takomillashtirish	310
Xasanbayeva Gulbahor Nasrullayevna, Arslanova Madina Mansurovna	
Musiqqa o'qituvchilarida cholg'u ijrochilik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish (fortepiano asarlari misolida)	313
Rahimberganova Zuhra Shuxrat qizi	
Yosh xodimlarni kasbga moslashtirishda zamonaviy pedagogik metodlarning o'rni va ahamiyati	317
Adilov Baxadir Tanatarovich	



Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari	321
Atamuratov Dilshod	
Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование"	325
Ахмедова Чарос Ильхомовна	
Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari	332
Bekchanova Sabohat Matrasulovna	
Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari	338
G'aniyeva Zarina Itolmas qizi	
Maktabgacha ta'limda inklyuziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar	342
Gulyamova Aziza Otabek qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi	346
Komiljonova Mohinur Allabergan qizi	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar	350
Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi	
Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari	353
Shixova Inobat Omonovna	
Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi	358
Usmanova Shaxnoza Baxodirovna	
Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari	363
Xalilova Hilola Sharopovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari	368
Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi	
Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...	372
Boboqulova Munisa Shavkat qizi	
Ta'lim sifatini monitoring qilishda elektron tizimlardan foydalanish samaradorligini oshirish: amaliy muammolar va takomillashtirish modeli	376
Oripova Shahzoda Zafarjon qizi	
Специфика подготовки фигуристов-одиночников на тренировочном этапе	380
Тохинова Шохсанам Фарход кизи	
Talabalarning Speaking ko'nikmasini rivojlantirishda zamonaviy raqamli platformalardan foydalanish	385
Rasulova Moxira Abdusalilovna	
Umumta'lim jarayoni uchun milliy dastur yaratish hamda amaliyotga joriy etish nazariyasi	388
Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi	
Ta'lim muassasasi rahbarining raqamli kompetentligi mazmuni va tarkibiy komponentlari	394
Shakadirova Nigora Irgashevna	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda ijodkorlikni rivojlantirish: xorijiy tajriba va milliy model	398
Shabbazova Nodira Xamzayevna	
Мотивация к изучению английского языка у старшеклассников: теоретико-методологические основы, факторы и педагогические условия	403
Хаджиметова Дилноза Рахимовна	
Milliy hunarmandchilik vositasida uyushmagan xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	408
Baxronova Shoir Yadorovna	

O'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish ko'rsatkichlari tuzilishi	415
Botirova G. B.	
Radioelektron qurilmalarni konstruksiyasi va loyihalash fanini o'qitishda virtual-real laboratoriya mashg'ulotlarining integratsiyalashgan metodik modeli	421
Baymatova Nargiza Tuxtabayevna	
Gender yondashuvi asosida o'quvchilarning huquqiy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	427
Tojiboyeva Gulchexra Sadriddinovna	
Raqamli avlod o'quvchilarida axloqiy dunyoqarashni tarix ta'limi orqali shakllantirishning pedagogik mexanizmlari	437
Ahmedov Nodir Kodiraliyevich	
Zo'ravonlik tajribasini boshdan kechirgan bolalarda koping-strategiyalarining shakllanishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari	443
Komilova Komila Inomjon qizi	
Talabalar ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda ijtimoiy tarmoqlarning pedagogik imkoniyatlari va nazariy-metodologik tahlili	446
Abdurahmonova Shaxodat Faxridin qizi	
Kredit-modul tizimida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil talim olish imkoniyatlarini takomillashtirish modeli	453
A. X. Eshqorayev, M. Q. Urozov, Q. A. Eshqorayev	
Muhandislik kasbini shakllantirishda tasviriy san'at fanining o'rni va ahamiyati	456
Fazliddinova Gulasal Farhod qizi	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalarini o'qitish uchun kompetensiyaga yo'naltirilgan adaptiv metodik tizim: kvazi-eksperimental tadqiqot dalillari	461
Mamajanov Raxmatilla Yakubjanovich, Xolbekov Abdusattor Maxammatovich	
Malakali voleybolchi qizlarning texnik tayyorgarligini takomillashtirish masalalari	470
Odilova Feruza	
Zamonaviy ta'lim muhitida talabalarning kasbiy-etik va muloqot madaniyatini rivojlantirishning amaliy holati va mavjud muammolar	477
Perdeshova Nargiza Yesenbayevna	
5–6 yoshli bolalarning ingliz tili mashg'ulotlarida kreativ faoliyatini baholash: montessori tamoyillariga mos diagnostik rubrika loyihasi	482
Sadoqat Karimova Abduxamidovna	
"Ilk qadam" davlat o'quv dasturining 3-nashri asosida bolalarning ijodiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish	489
Tursunova Kamolaxon Ulug'bek qizi	
Maktabgacha ta'lim jarayonida rivojlanish sohalarining o'zaro integratsiyasini ta'minlashga innovatsion yondashuvlar	495
Yigitaliyeva Gullola Mirobil qizi	
Temperament fenomenining evolyutsiyasi va ilmiy talqinlari	498
Dilmurodova Zilola Davron qizi	
Integrativ yondashuv asosida ingliz tili darslarida debat texnologiyasi orqali kreativ fikrlashni rivojlantirish ...	502
Abdulaxatova Shohsanam Adhamjon qizi	
SMART-SL metodikasi asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish	506
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna, Zumakova Dilbarxon	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi komponentlari va ularning vazifaviy tavsifi ...	511
Shakarova Nilufar Zuvaydullayevna	
Diskret vaqtli seir epidemik model dinamikasi	516
Shukurova Shahnoza Sayfiddin qizi	
Ijtimoiy faol shaxsning psixologik determinantlari	522
Ozodqulov Olimjon Bahodir o'g'li	



Murabbiylarning emotsional intellekti sport maktablari samaradorligini oshirish omili sifatida	527
Tursunbayev Sanjar Baxtiyorovich	
Raqamli ta'lim sharoitida kelajak o'qituvchisining pedagogik-psixologik faoliyatini modellash tirish metodikasi	531
Sattorov Bobur Botir o'g'li	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida ta'lim sifatini boshqarish	536
Xudoyberdiyev Eldor Uktamjonovich	
Ta'limning barcha bosqichlarida onalarni pedagogik jarayonlarga jalb qilish: bosqichma-bosqich model va uning pilot sinovi natijalari	547
Sultonova Mehruza Xusanboy qizi, Axmedova Dilnoza Odilovna	
Maktab o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish asosida ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishning ilmiy-metodik mexanizmlari	552
Musayeva Lobar	
Boshlang'ich ta'limda fanlararo integratsiyani sun'iy intellekt asosida takomillashtirishning nazariy asoslari	559
Panjiyev Jo'raqul Menglimamat o'g'li	
Farg'ona vodiysi ov qushlari gelmintlarining asosiy va oraliq xo'jayinlar tizimida tarqalish qonuniyatlari	563
Abduvahobova Gulshanoy G'ayratjon qizi	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatda sensor integratsiyadan foydalanishga tayyorlash	569
Egamberdiyeva Nigora Azizovna	
O'smirlarda emotsional barqarorlikni shakllantirish va rivojlantirishning psixologik asoslari	574
Qodirov Jahongir Neymat o'g'li	
O'spirinlarda suitsidal xulqning oldini olishga qaratilgan eksperimental natijalar tahlili	578
Sadilloev Odiljon Oripovich	
Tibbiyotda lotin terminlarini o'qitishning bugungi kundagi holati	583
Sayimova Gulshad	
Kichik maktab yoshi davridagi bolalarning psixologik, sotsiologik va pedagogik muammolarining yechimlari	587
Zulfiyeva Sarvinoz Doston qizi	
Виртуальные речевые ситуации как средство формирования коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному	591
Абдусаламова Адиба Каримжановна	



TA'LIMNING BARCHA BOSQICHLARIDA ONALARNI PEDAGOGIK JARAYONLARGA JALB QILISH: BOSQICHMA- BOSQICH MODEL VA UNING PILOT SINOVI NATIJALARI

Sultonova Mehruza Xusanboy qizi
Guliston davlat pedagogika instituti magistranti

Axmedova Dilnoza Odilovna
Pedagogika fanlari doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada ta'limning maktabgacha, boshlang'ich va o'rta bosqichlarida onalarni pedagogik jarayonlarga jalb qilishning bosqichma-bosqich modeli asoslanadi. Model bog'lanish nazariyasi, yaqin rivojlanish zonasini tushunchasi, Epsteinning olti turdagi ishtirok tizimi va Baumrindning avtoritativ ota-onalik konsepsiyasiga tayanadi hamda o'zbek pedagogik merosi bilan uyg'unlashtiriladi. Model asosida uch moduldan, 12 sessiya va 24 soatdan iborat trening dasturi ishlab chiqilgan. Dasturning amaliy o'tkazilish imkoniyati 10 nafar ona ishtirokida, uchta vakil sessiya doirasida pilot sinovdan o'tkazildi. Natijalar qatnov darajasi 96,7 foizni, uy amaliyotining bajarilishi 78 foizni tashkil etganini va olti pedagogik kompetentlik bo'yicha o'z-o'zini baholash ko'rsatkichi o'rtacha 0,9 ballga o'sganini ko'rsatdi. Tadqiqot onalarga yo'naltirilgan tizimli tayyorgarlik dasturining O'zbekiston sharoitida amalga oshirilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: oilaviy ta'lim, onaning pedagogik kompetentligi, bosqichma-bosqich ishtirok modeli, trening dasturi, pilot tadqiqot, bog'lanish nazariyasi, raqamli qo'llab-quvvatlash, maktabgacha ta'lim.

Abstract: The article substantiates a staged model of maternal involvement in pedagogical processes across preschool, primary and secondary education. The model draws on attachment theory, the zone of proximal development, Epstein's six types of involvement and Baumrind's authoritative parenting concept, integrated with the Uzbek pedagogical heritage. A training programme of three modules, 12 sessions and 24 academic hours was developed on this basis. Feasibility was tested in a pilot study with 10 mothers across three representative sessions. Attendance reached 96.7 per cent, home practice completion 78 per cent, and self-assessment across six pedagogical competencies rose by an average of 0.9 points. The findings support the practicability of a systematic mother-oriented training programme in the Uzbek context.

Key words: family education, maternal pedagogical competence, staged involvement model, training programme, pilot study, attachment theory, digital support, preschool education.

Аннотация: В статье обосновывается поэтапная модель вовлечения матерей в педагогические процессы на дошкольной, начальной и средней ступенях образования. Модель опирается на теорию привязанности, понятие зоны ближайшего развития, шестикомпонентную систему участия Дж. Эпстайн и концепцию авторитетного родительства Д. Баумринд. На основе модели разработана тренинговая программа из трёх модулей, 12 сессий и 24 академических часов. Пилотное испытание проведено с участием 10 матерей на материале трёх репрезентативных сессий. Посещаемость составила 96,7 процента, выполнение домашних заданий – 78 процентов, а средний прирост самооценки по шести компетенциям – 0,9 балла.

Ключевые слова: семейное образование, педагогическая компетентность матери, поэтапная модель участия, тренинговая программа, пилотное исследование, теория привязанности, цифровая поддержка, дошкольное образование.

KIRISH

O'zbekistonda so'nggi yillarda ta'lim tizimini yangilash bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Maktabgacha ta'lim qamrovi 2017-yildagi 30 foizdan 2025-yilga kelib 75 foizdan yuqori darajaga ko'tarildi, "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi barcha davlat bog'chalariga joriy etildi, Bebbo raqamli platformasiga 372 mingdan ortiq ota-ona ulandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son¹ Farmoni

1 <https://lex.uz/uz/docs/-7128182>

kompetentlikka asoslangan o'quv-metodik materiallarni ishlab chiqish va har bir bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyotini belgilab berdi.

Bu islohotlarning umumiy yo'nalishi bolaga qaratilgan. Onaning o'zi pedagogik subyekt sifatida qanday tayyorlanishi masalasi esa hozircha tizimli mexanizmga ega emas. Amaliyotda ona ishtiroki ko'pincha bir martalik yig'ilishlar, tasodifiy maslahatlar va intuitiv qarorlar shaklida namoyon bo'ladi. Ota-onalar uchun mo'ljallangan mavjud materiallar bolaning rivojlanish ko'rsatkichlarini tushuntiradi, lekin onaning pedagogik ko'nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirish vazifasini o'z zimmasiga olmaydi.

Shu bilan birga, ona ishtirokining o'zi bir xil hodisa emas. Uch yoshli bola bilan ishlaydigan ona va o'n olti yoshli o'smir bilan muloqot qiladigan ona butunlay boshqa vazifalarni bajaradi. Demak, onalarga yo'naltirilgan har qanday tayyorgarlik dasturi bolaning yosh xususiyatlariga bog'lab qurilishi kerak.

Maqolaning maqsadi uch qismdan iborat. Birinchidan, ta'limning uch bosqichi uchun bosqichma-bosqich ona ishtiroki modelini nazariy jihatdan asoslash. Ikkinchidan, shu model asosida ishlab chiqilgan trening dasturining tuzilmasini bayon qilish. Uchinchidan, dasturning amaliy o'tkazilish imkoniyatini baholash uchun o'tkazilgan pilot tadqiqot natijalarini taqdim etish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Onaning bola rivojlanishidagi o'rni haqidagi ilmiy qarashlar bir necha yo'nalishda shakllangan.

Bog'lanish nazariyasi doirasida Dj. Bowlby va M. Ainsworth onaning hissiy javobgarligi bolaning keyingi ijtimoiy va kognitiv rivojlanishi uchun asos yaratishini ko'rsatdi ^[1]. Bu yondashuv maktabgacha bosqichda ona ishtirokining nima uchun eng yuqori ahamiyatga ega ekanligini tushuntiradi.

L. S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi tushunchasi kattalar yordamining pedagogik mazmunini ochib beradi ^[2]. Bola mustaqil bajara olmaydigan, lekin kattalar ko'magi bilan uddalay oladigan vazifalar maydoni aynan onaning o'rgatuvchilik faoliyati uchun ish maydoni hisoblanadi. Bu tushuncha boshlang'ich ta'lim bosqichida uy vazifasiga yordam berish metodikasini qurish uchun bevosita asos beradi.

Dj. Epsteyn oila, maktab va jamiyat hamkorligining olti turini ajratdi: ota-onalikni qo'llab-quvvatlash, muloqot, ko'ngilli ishtirok, uyda o'qishga yordam, qaror qabul qilishda qatnashish va jamiyat resurslari bilan hamkorlik ^[3]. Bu tasnif ishtirokni bir butun hodisa sifatida emas, aniq amaliy kanallar tizimi sifatida ko'rish imkonini beradi.

D. Baumrindning ota-onalik uslublari tipologiyasi avtoritativ uslubning, ya'ni talabchanlik va iliqlikni birlashtiradigan yondashuvning bola akademik natijalari uchun eng qulay ekanligini asoslaydi ^[4]. Bu model o'smirlik davrida ona ishtirokining mazmunini belgilashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

U. Bronfenbrennerning ekologik tizimlar nazariyasi esa oilani ta'lim tizimidan ajratib emas, uning ichida joylashgan quyi tizim sifatida ko'rishga metodologik asos beradi ^[5].

K. Xuver-Dempsey va X. Sandler modeli ota-onaning ta'lim jarayoniga qo'shilish qarorini uchta omil bilan izohlaydi: o'z rolini qanday tushunishi, o'z kuchiga ishonchi va maktabdan keladigan taklif ^[6]. Bu model onalarga mo'ljallangan dastur faqat bilim berish bilan cheklanmasligi, balki onaning o'ziga bo'lgan pedagogik ishonchini oshirishi kerakligini ko'rsatadi.

M. Noulisning kattalar ta'limi nazariyasi esa dasturning shakliga talab qo'yadi: kattalar amaliy, tajribaga tayanadigan va zudlik bilan qo'llash mumkin bo'lgan materialni yaxshi o'zlashtiradi ^[7].

Milliy pedagogik meros ham bu masalada boy manba hisoblanadi. Abu Nasr Forobiy oilani inson tarbiyasining birinchi bosqichi sifatida ta'riflagan, Yusuf Xos Hojib va Alisher Navoiy asarlarida onaning axloqiy o'rnak vazifasi alohida ta'kidlangan, Abdulla Avloniy esa tarbiyani oiladan boshlanadigan uzluksiz jarayon sifatida qaragan ^[8]. Bu qarashlar zamonaviy nazariyalarga zid emas, aksincha, ularga madaniy asos beradi.

Xalqaro amaliyotda onalarni jalb qilishning tizimli modellari mavjud. AQShning Head Start dasturi, Buyuk Britaniyaning Sure Start tashabbusi va Finlandiyaning neuvola tizimi ota-ona ishtirokini davlat siyosati darajasida kafolatlaydi va bolaning ta'lim natijalariga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatgani qayd etilgan ^[9].

Ayni paytda Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasi ishtirokning miqdoriy oshishi har doim ham foydali emasligini, haddan ortiq akademik bosim salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatdi ^[10].

Mahalliy pedagogika fanida oila va maktab hamkorligi masalasi bir qator tadqiqotlarda ko'rib chiqilgan. Biroq onaning alohida pedagogik subyekt sifatidagi kompetentligi, uning tarkibi va rivojlantirish yo'llari mustaqil ilmiy muammo darajasida yetarli o'rganilmagan. Aynan shu bo'shliq mazkur tadqiqotning ilmiy muammosini belgilaydi.

Yuqoridagi nazariy asoslardan kelib chiqib, ona ishtirokining uch bosqichli modeli taklif etiladi. Model uchta tamoyilga tayanadi. Izchillik tamoyili har bir bosqich oldingi bosqich ustiga qurilishini talab qiladi. Moslashuvchanlik tamoyili modelni turli hududiy va ijtimoiy sharoitlarga sozlash imkonini beradi. Kompetentlikka yo'nalganlik tamoyili har bir bosqich uchun onadan talab qilinadigan aniq ko'nikmalarni belgilaydi (1-jadval).



1-jadval: Ta'lim bosqichlari bo'yicha ona ishtiroki modeli (muallif tomonidan tuzilgan)

Ta'lim bosqichi	Onaning yetakchi roli	Asosiy pedagogik vazifa
Maktabgacha (3 dan 6 yosh)	Birlamchi ta'lim muhitini yaratuvchi	Uyda rivojlantiruvchi muhit, o'yin orqali muloqot, bog'cha bilan izchil aloqa
Boshlang'ich (6 dan 10 yosh)	Pedagogik sherik va akademik qo'llovchi	Jarayonga yo'naltirilgan uy vazifasi yordami, o'quv odatlarini shakllantirish
O'rta (11 dan 17 yosh)	Munosabat orqali strategik yo'naltiruvchi	Ishonchli muloqot, mustaqillikni qo'llab-quvvatlash, kelajakni birga rejalashtirish

Model asosida onalarning oltita pedagogik kompetentligi ajratildi: bolaning rivojlanishi haqidagi bilim, hissiy sezgirlik, jarayonga yo'naltirilgan akademik yordam, maktab bilan hamkorlik ko'nikmasi, psixologik yondashuv va kelajakni rejalashtirish. Shu oltita kompetentlikni rivojlantirish uchun uch moduldan iborat trening dasturi ishlab chiqildi. Dastur hajmi 12 sessiya va 24 akademik soatni tashkil etadi. Har bir modul bitta ta'lim bosqichiga mos keladi va nazariy blok, amaliy mashq hamda uy amaliyoti topshirig'idan iborat sessiyalarga bo'linadi. Dasturning raqamli qo'llab-quvvatlash komponenti sifatida "Onajon 24" platformasi ishlatiladi. Platforma sessiyalar oralig'ida refleksiya kundaligini yuritish, video materiallar bilan ishlash va trener bilan aloqa qilish imkonini beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Dasturning amaliy o'tkazilish imkoniyatini baholash uchun pilot tadqiqot o'tkazildi. Pilot format klassik eksperimental tadqiqotdan farq qiladi: uning maqsadi samaradorlikni statistik isbotlash emas, balki dasturning ishlash mexanizmini sinash, onalarning munosabatini aniqlash va zarur takomillashtirishlarni belgilashdir. Bunday yondashuv pedagogik dasturlarni ishlab chiqishning xalqaro amaliyotida standart bosqich hisoblanadi ^[11].

Tanlama 10 nafar onadan iborat bo'lib, maqsadli tanlash usuli qo'llanildi. Farzand yoshi bo'yicha taqsimot quyidagicha belgilandi: maktabgacha yoshdagi farzandi bor 4 ona, boshlang'ich sinf o'quvchisining onasi 3 nafar, o'rta sinf o'quvchisining onasi 3 nafar. Hududiy taqsimot dasturning shahar va qishloq sharoitida ishlashini tekshirishga qaratildi: Toshkent shahridan 6 ona maktab va bog'cha bazasidagi kanalda, Toshkent viloyatining qishloq hududlaridan 4 ona esa mahalla markazi bazasidagi kanalda qatnashdi. Qatnashchilar ta'lim darajasi va kasbiy faoliyati bo'yicha ham farqlandi.

To'liq 12 sessiyalik dasturni magistrlik tadqiqoti doirasida amalga oshirish vaqt va resurs cheklovlari sababli imkonsiz edi. Shu bois har bir moduldan bittadan vakil sessiya tanlandi va jami uchta sessiya o'tkazildi. Birinchi sessiya bog'lanish nazariyasi asosida uyda rivojlantiruvchi muhit yaratishga, ikkinchi sessiya yaqin rivojlanish zonasi va uy vazifasi yordamiga, uchinchi sessiya esa avtoritativ ota-onalik modeli asosida o'smir bilan muloqotga bag'ishlandi.

Tadqiqot davri besh haftani tashkil etdi. Dastlabki uch haftada haftasiga bittadan sessiya o'tkazildi, keyingi ikki hafta kuzatuv bosqichi sifatida ishlatildi. Ma'lumot to'plash to'rt darajada tashkil etildi.

Birinchi daraja har sessiyadan keyin to'ldiriladigan fikr-mulohaza varaqasidan iborat bo'ldi.

Ikkinchi daraja o'z-o'zini baholash so'rovnomasini qamrab oldi: 18 ta savol, olti kompetentlikning har biriga uchtdan, Likert besh ballik shkalasida, tadqiqot boshida va oxirida.

Uchinchi daraja sifat ma'lumotini yig'di, ya'ni refleksiya kundaliklari, har bir ona bilan 30 daqiqalik individual intervyu va shahar hamda qishloq guruhlar bilan alohida o'tkazilgan fokus-guruh muhokamalari. Sifat ma'lumoti tematik tahlil usuli bilan ishlandi ^[12].

To'rtinchi daraja trenerning yozma kuzatuv yozuvlaridan iborat bo'ldi va o'z-o'zini baholashning subyektivligini balanslashga xizmat qildi.

Samaradorlik mezonlari uch o'lchamda belgilandi. Dastur o'tkazilishi sifati uchun kamida 80 foiz qatnov, topshiriqlarning kamida 70 foizi bajarilishi va o'rtacha 4,0 ball qoniqish darajasi ko'rsatkich sifatida qabul qilindi. Onaning rivojlanishi uchun olti kompetentlik bo'yicha o'rtacha 0,5 ball dan 1,0 ballgacha o'sish kutildi. Dastur sifati uchun sessiyalar reytingi, onalar tomonidan bildirilgan takliflar va madaniy moslik bo'yicha qaytar aloqa hisobga olindi.



TAHLIL VA NATIJALAR

Qatnov ko'rsatkichi kutilganidan yuqori bo'ldi. 10 nafar onadan 9 nafari uchala sessiyada ham ishtirok etdi, bitta ona oilaviy sabablarga ko'ra ikkinchi sessiyani o'tkazib yubordi va materiallarni keyinroq platforma orqali mustaqil o'rgandi. Umumiy qatnov 96,7 foizni tashkil etdi. Onalarning fikr-mulohazalarida yuqori qatnovning sabablari sifatida dasturning amaliy yo'nalganligi, mashqlarning mahalliy oilaviy hayotga moslanganligi va guruh muhokamalarining qulayligi qayd etildi.

Sessiyalar reytingida ikkinchi sessiya eng yuqori bahoni oldi, ya'ni 4,6 ball. Uchinchi sessiya 4,4 ball, birinchi sessiya 4,3 ball to'pladi. Ikkinchi sessiyaning ustunligi uy vazifasi mavzusining onalarning kundalik amaliyotiga eng bevosita taalluqli ekanligi bilan izohlanadi. Uy amaliyoti topshiriqlarining bajarilishi 78 foizni tashkil etdi: tarqatilgan 30 ta topshiriqdan 23 tasi to'liq bajarildi. Bajarilmagan topshiriqlarning aksariyati o'smirlik davriga oid mashqlarga to'g'ri keldi, chunki o'smir farzand bilan ochiq suhbat boshlash onalar uchun hissiy jihatdan qiyin vazifa bo'lib chiqdi.

O'z-o'zini baholash natijalari olti kompetentlik bo'yicha aniq tendensiyani ko'rsatdi (2-jadval).

2-jadval: Onalarning pedagogik kompetentligini o'z-o'zini baholash natijalari (n=10, besh ballik shkala)

Pedagogik kompetentlik	Boshlang'ich ball	Yakuniy ball	O'sish	O'rin
Rivojlanish bo'yicha bilim	2,6	3,4	+0,8	5
Hissiy sezgirlik	2,6	3,8	+1,2	1
Jarayonga yo'naltirilgan yordam	2,5	3,7	+1,2	1
Maktab bilan hamkorlik	2,9	3,8	+0,9	3
Psixologik yondashuv	2,7	3,6	+0,9	3
Kelajakni rejalashtirish	2,6	3,2	+0,6	6
O'rtacha ko'rsatkich	2,65	3,58	+0,9	

Eng katta o'sish hissiy sezgirlik va jarayonga yo'naltirilgan yordam bo'yicha qayd etildi. Bu ikkala kompetentlik amaliy mashq orqali tez shakllanadi. Hissiy sezgirlik mashqlarida rol o'yini metodikasi qo'llanildi, onalar vaziyatni farzand nuqtayi nazaridan his qilish tajribasini oldilar. Jarayonga yo'naltirilgan yordam bo'yicha esa real uy vazifasi holatlari modellashtirilib, tayyor javobni aytish o'rniga yo'naltiruvchi savol berish texnikasi mashq qilindi.

Eng sekin o'sgan sohalar bolaning rivojlanishi haqidagi bilim va kelajakni rejalashtirish bo'ldi. Birinchisi chuqur nazariy soha bo'lib, qisqa muddatli treningda faqat asosiy tushunchalar berilishi mumkin. Ikkinchisi esa faqat bilimga emas, ona va farzand o'rtasidagi munosabat dinamikasiga bog'liq va qisqa vaqtda o'zgarmaydi.

Trener kuzatuvlari bu tendensiyani tasdiqladi. Uchinchi sessiyadan keyin onalarning mashqlardagi faolligi sezilarli oshdi, savol berish va o'z fikrini bildirish ko'nikmasi kuchaydi. Refleksiya yozuvlarining hajmi ham o'zgardi: birinchi sessiyada o'rtacha uch yoki to'rt jumla yozilgan bo'lsa, uchinchi sessiyadan keyin yozuvlar sakkiz yoki o'n jumlagacha yetdi va ularning tahliliy sifati oshdi.

"Onajon 24" platformasi ma'lumotlari onalarning haftasiga o'rtacha to'rt yoki besh marta platformaga kirganini va har safar taxminan 12 dan 15 daqiqagacha vaqt sarflaganini ko'rsatdi. Bu ko'rsatkichlar raqamli komponentning onalarning kundalik hayotiga singib ketganini va u fizik sessiyalar oralig'idagi pedagogik aloqani saqlab tura olishini tasdiqlaydi.

Sifat ma'lumotining tematik tahlili to'rtta asosiy mavzuni aniqladi. Birinchi mavzu onalarning o'zlari intuitiv ravishda qo'llayotgan usullar aniq nazariy nomga va asosga ega ekanligini bilib hayratlanishi bilan bog'liq bo'ldi. Ikkinchi mavzu guruh dinamikasining qiymatiga oid: onalar boshqa onalar bilan tajriba almashishni dasturning eng qadrlil qismlaridan biri sifatida baholadilar. Uchinchi mavzu madaniy moslikka taalluqli: onalar o'smirlik davriga oid mashqlarda g'arb namunalari o'rniga mahalliy oilaviy vaziyatlarni ko'rishni istadilar. To'rtinchi mavzu amaliy mashq vaqtini oshirish talabi bilan bog'liq bo'ldi.

Hududiy taqsimot bo'yicha tahlil shahar va qishloq qatnashchilarining umumiy qoniqish darajasi deyarli teng ekanligini ko'rsatdi, farq 0,2 balldan kam bo'ldi. Biroq urg'ular farqlandi. Qishloq qatnashchilari guruh dinamikasi va o'zaro yordamni yuqori baholadilar, shahar qatnashchilari esa nazariy mazmun va aniq ko'nikmalar berishga ko'proq ahamiyat qaratdilar. Bu farq dasturning ikki kanal uchun turlicha urg'ularga ega versiyalarini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi.

Olingan natijalar dasturning amaliy sharoitda o'tkazilishi mumkinligini tasdiqlaydi. Barcha uch mezon belgilangan chegaradan yuqori chiqdi va onalarning kompetentligidagi o'zgarish kutilgan diapazonga mos keldi. Ayni paytda natijalarni talqin qilishda bir qator cheklovlarni ochiq tan olish zarur.



Tanlama hajmi kichik, 10 nafar ona olingan natijalarni umumiy aholiga ekstrapolyatsiya qilish uchun yetarli emas. Nazorat guruhi yo'q, shu bois kuzatilgan o'zgarishlarni faqat trening ta'siriga bog'lash statistik jihatdan asoslanmaydi, chunki vaqt o'tishi va tashqi omillar ham ta'sir qilgan bo'lishi mumkin. To'liq 12 sessiyalik dastur emas, faqat uchta vakil sessiya sinaldi. Kuzatuv bosqichi ikki hafta bilan cheklandi, ko'nikmalarning uzoq muddatli barqarorligi baholanmadi. Nihoyat, asosiy o'lchov vositasi o'z-o'zini baholash bo'lib, u subyektivlikka moyil, trener kuzatuvu bu xatoni faqat qisman balanslaydi.

Pilot natijalari asosida dasturga beshta takomillashtirish taklif etiladi. Amaliy blok vaqti 40 daqiqadan 50 yoki 55 daqiqagacha oshirilishi, nazariy blok esa shunga mos qisqartirilishi kerak. Uchinchi modulning case-study materiallari mahalliy mualliflar tomonidan qayta yozilishi va O'zbekiston oilaviy kontekstidagi aniq vaziyatlarni qamrab olishi lozim. Sessiyalar uchun optimal vaqt sifatida soat 14:00-16:00 oralig'i belgilanadi. "Onajon 24" platformasiga onalar oralig'ida guruh muhokamasi imkoniyati va sessiyadan keyingi 24 soatlik tezkor savol-javob funksiyasi qo'shilishi kerak. Dasturni milliy darajaga olib chiqish uchun maktab psixologlari va ijtimoiy pedagoglarga mo'ljallangan 40 soatlik trenerlar tayyorlash dasturi zarur.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot uchta asosiy xulosaga olib keldi:

Birinchidan, ona ishtiroki bir xil va o'zgarmas hodisa emas. U bolaning rivojlanish bosqichiga qarab sifat jihatidan o'zgaradi va shu bois onalarga mo'ljallangan tayyorgarlik dasturi bosqichma-bosqich qurilishi kerak. Maktabgacha bosqichda ona birlamchi ta'lim muhitini yaratadi, boshlang'ich ta'limda pedagogik sherikka aylanadi, o'rta ta'limda esa munosabat orqali yo'naltiruvchi vazifasini bajaradi.

Ikkinchidan, taklif etilgan trening dasturi amaliy sharoitda ishlay oladi. Qatnov 96,7 foiz, topshiriqlarning bajarilishi 78 foiz va olti kompetentlik bo'yicha o'rta 0,9 ball o'sish belgilangan mezonlarga to'liq mos keldi. Ayni paytda bu ko'rsatkichlar dasturning samaradorligini yakuniy isbotlamaydi, ular faqat keyingi to'liq eksperimental tadqiqot uchun zamin yaratadi.

Uchinchidan, raqamli platforma an'anaviy trening shakliga qo'shimcha emas, uning tarkibiy qismi sifatida ishlaydi. "Onajon 24" platformasi sessiyalar oralig'idagi uzilishni to'ldirdi va dasturni milliy miqyosda masshtablashtirish uchun texnik imkoniyat yaratadi.

Kelgusi tadqiqot yo'nalishlari sifatida quyidagilar belgilanadi: kattaroq tanlama va nazorat guruhi bilan to'liq 12 sessiyalik dasturni sinash, onaning kompetentligi hamda farzandning ta'lim yutuqlari o'rtasidagi bog'liqlikni bir yildan uch yilgacha bo'lgan longitudinal kuzatuvda o'rganish, dasturning turli viloyatlardagi samaradorligini qiyoslash va otaning ta'lim jarayonidagi ishtirokini alohida tadqiqot predmeti sifatida ko'tarish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bowlby J. Attachment and Loss. Vol. 1: Attachment. New York: Basic Books, 1969. 428 p.
2. Выготский Л.С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт, 1999. 352 с.
3. Epstein J.L. School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. Boulder: Westview Press, 2001. 620 p.
4. Baumrind D. The Influence of Parenting Style on Adolescent Competence and Substance Use // Journal of Early Adolescence. 1991. Vol. 11, No. 1. P. 56 dan 95 gacha.
5. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. Cambridge: Harvard University Press, 1979. 330 p.
6. Hoover-Dempsey K.V., Sandler H.M. Why Do Parents Become Involved in Their Children's Education? // Review of Educational Research. 1997. Vol. 67, No. 1. P. 3 dan 42 gacha.
7. Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. The Adult Learner. 8th ed. London: Routledge, 2015. 402 p.
8. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. Toshkent: O'qituvchi, 1992. 160 b.
9. Melhuish E., Belsky J., Leyland A. National Evaluation of Sure Start Local Programmes. London: DfES, 2010. 96 p.
10. OECD. Parental Involvement in Education: Evidence from PISA. Paris: OECD Publishing, 2019. 84 p.
11. Thabane L., Ma J., Chu R. et al. A Tutorial on Pilot Studies: the What, Why and How // BMC Medical Research Methodology. 2010. Vol. 10, No. 1. P. 1 dan 10 gacha.
12. Braun V., Clarke V. Using Thematic Analysis in Psychology // Qualitative Research in Psychology. 2006. Vol. 3, No. 2. P. 77 dan 101 gacha.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi PF-152-son "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.
14. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, UNICEF. "Ilk qadam" davlat maktabgacha ta'lim dasturi. Toshkent, 2018. 128 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.